

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIIY XULQINI TARBIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

*Jizzax viloyat Pedagogik mahurat markazi, Maktabgacha, boshlang'ich va
maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi
Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirish va rivojlantirishning metodologik asoslari yoritilgan. Ijtimoiy xulq bolalarda erta yoshdan boshlab shakllanadi va bu jarayon pedagogik boshqaruv va maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirni talab qiladi. Ishda ijtimoiy xulq tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy jihatlari, psixologik-pedagogik omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy xulqni tarbiyalashda qo'llaniladigan asosiy metod va vositalar, faoliyat turlari (o'yin, mehnat, muloqot, san'at)ning roli ochib berilgan. Ishda ilg'or pedagogik texnologiyalar, xususan, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar, interaktiv yondashuvlar orqali bolalarda hamkorlik, empatiya, hurmat, odob kabi ijtimoiy xatti-harakatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, xulq-atvor madaniyati, tarbiya, pedagogik jarayon, ijtimoiylashtirish, muloqot madaniyati, Ijtimoiy kompetensiyalar, o'yin faoliyati, hamkorlik, rivojlanish bosqichlari, Psixologik-pedagogik yondashuv, rivojlantiruvchi muhit, Ijtimoiy munosabatlar, rolli o'yinlar, interaktiv metodlar, empatiya.

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы формирования и развития социального поведения у детей дошкольного возраста. Социальное поведение формируется у детей с раннего возраста, и этот процесс требует педагогического управления и целенаправленного воспитательного воздействия. В работе анализируется содержание понятия социального поведения, его структурные аспекты, психолого-

педагогические факторы. Раскрывается роль основных методов и средств, используемых в воспитании социального поведения в дошкольных образовательных учреждениях, а также видов деятельности (игра, труд, общение, творчество). В работе представлены практические рекомендации, направленные на развитие у детей таких социальных форм поведения, как сотрудничество, эмпатия, уважение, этикет, посредством использования современных педагогических технологий, в частности ролевых игр, проблемных ситуаций и интерактивных подходов.

Ключевые слова: Дошкольное образование, культура поведения, воспитание, педагогический процесс, социализация, культура общения, социальные компетенции, игровая деятельность, сотрудничество, этапы развития, психолого-педагогический подход, развивающая среда, социальные отношения, ролевые игры, интерактивные методы, эмпатия.

Annotation. This article covers the methodological foundations of the formation and development of social behavior in preschool children. Social behavior is formed in children from an early age, and this process requires pedagogical management and goal-oriented educational influence. The work analyzes the content of the concept of social behavior, its structural aspects, and psychological and pedagogical factors. It also reveals the role of the main methods and tools used in the education of social behavior in preschool educational institutions, as well as types of activities (games, work, communication, art). The work provides practical recommendations aimed at forming social behaviors in children, such as cooperation, empathy, respect, and etiquette, through advanced pedagogical technologies, in particular, role-playing games, problem situations, and interactive approaches.

Key words: Preschool education, behavioral culture, upbringing, pedagogical process, socialization, communication culture, social competencies, game activities, cooperation, stages of development, Psychological and pedagogical approach, developmental environment, Social relations, role-playing games, interactive methods, empathy.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida asosiy e'tibor bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan. Ayniqsa, ijtimoiy xulqni shakllantirish orqali bolalarni jamiyatga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bola kichik yoshdanoq jamiyat qoidalariga, etik me'yorlarga, muloqot madaniyatiga ko'nikishi kerak. Shu sababli, bolalarning ijtimoiy xulqini rivojlantirishda pedagogik jarayonni metodologik jihatdan to'g'ri tashkil etish zarur.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulqning shakllanish xususiyatlari

Ijtimoiy xulq — bu bolaning jamiyatdagi o'rni, boshqalar bilan o'zaro munosabati, o'zini tutish qoidalariga rioya qilishidir. Maktabgacha yosh — bu bolada axloqiy mezonlar, empatiya, boshqalarga nisbatan hurmat, hamkorlik va ijtimoiy moslashuvchanlik shakllanadigan eng muhim davrdir. Psixologlar fikriga ko'ra, 3–7 yosh oralig'ida bola o'zini jamiyatning bir qismi sifatida anglay boshlaydi. Bu davrda tarbiyachining roli muhim: bola muloqotda qanday bo'lishi, bahslashishni o'rganishi, kechirimlilikni anglab yetishi pedagogik yondashuvga bog'liq. Yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob'ektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. Demak, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma va malakalar, me'yorlar, qoidalar va boshqalarda ro'y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishi ni ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni,

bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir. Ahliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiy lashtirish qobiliyatida namoyon buladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shugullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik- pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi — bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun

kerakli sharoit yaratishdir. Aqliy tarbiya va ta'limning nazariy asoslari. Bola har doim buyumlar hamda hodisalar orasida bo'ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, tortib ko'radi, nimagadir quloq soladi. Shu tariqa asta-sekin dunyoni bilib boradi. Tevarak- atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari-analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil qiladi.

Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, g'adirdur, silliq-yaltiroq, xushbo'y va h.k. ni bilim olishga yordam beradi. Sezgi atrofdagi muhitni bilishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bola sezgi tufayligina tevarak-atrofdagi narsalar to'g'risida bilim, tajriba to'plab boradi. Idrok esa ancha murakkab jarayon bo'lib, sezgilar asosida hosil bo'ladi. Bola olmani qo'lida ushlab ko'rib, qarab chiqib va yeb ko'rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqtda dumaloq, qizargan, xushbo'y, mazali va h.k. tarzda idrok qiladi. Bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta analizator: ko'rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi. Analizatorlar bir vaqtning o'zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarini aniqroq hamda to'laroq bilish imkonini beradi. Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog'idan boshlaboq aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko'proq analizatorlar yordamida idrok qilishga imkon tug'dirishlari, analizatorlarning rivojlanishiga, ya'ni bolaning sensor madaniyatiga alohida e'tibor berishlari kerak. Bolada nutq paydo bo'lishidan ancha oldin (bola bir yoshga to'la boshlaganda birinchi bor gapira boshlaydi) u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi. Bola 3 yoshga to'lganda uning so'z zaxirasi 1200-1500 taga yetadi. Bola katta yoshdagi kishilar unga nima haqida gapirayotganlarini yaxshi tushunadi. Bu katga yoshdagi kishilar nutqidan har tomonlama tarbiyalashning kuchli vositasi tarzida foydalanish imkoniyatini beradi. Bolalarning aqliy jihatdan o'sishida xotira katga ahamiyatga ega. Bola tug'ilganda hech narsani bilmaydi va hech narsa qilolmaydi. U rivojlanishning birmuncha yuqoriroq darajasiga ko'tarilib biror bir foydali ish uchun ko'pgina bilim va malakalarini eslab qolishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning

xotirasi ko'pincha beixtiyor tarzda bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida xayol muhim rol o'ynaydi. Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida ta'lim va tarbiya ta'sirida tarkib topadi. Bolaning xayoli u syujetli o'yinlar o'y- nay boshlaganida, kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o'sha ertaklarga qiziqish orqali dastlabki alomatlari paydo bo'ladi. Ammo bo'ladigan xayol ko'proq aniq vaziyatga bog'liq bo'ladi (masalan, qo'g'irchoq ko'rinib qolsa, uni uxlatadi, mashina bo'lsa, biror narsani tashiydi va h.k.). Katta bog'cha yoshiga kelganda, bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o'zgarish yuz beradi. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi yosh avlodni aqliy tarbiyalash vazifalarini jamiyatimizning ijtimoiy talablariga va insonning aqliy rivojlanish mohiyati va tabiatiga asoslanib ishlab chiqadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ijtimoiy xulqni tarbiyalashda metodologik yondashuvlar

a) Faoliyatga asoslangan yondashuv

O'yin, mehnat, badiiy faoliyat orqali bola o'z xatti-harakatini boshqarishni, guruhda ishlashni, tartibni o'rganadi.

b) Rolli o'yinlar

“Do'konchi va xaridor”, “Mehmon kutish”, “Oilaviy hayot” kabi o'yinlar bolalarga ijtimoiy vazifalarni bajarishni, o'zini boshqalarning o'rniga qo'yishni o'rgatadi.

c) Kommunikativ metodlar

Nutqiy faoliyatni faollashtiruvchi mashqlar, bahs-munozaralar, ertaklar asosida tahlil qilish orqali bola o'z fikrini erkin ifoda eta boshlaydi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulqni shakllantirish — ularning kelajakdagi jamiyatga moslashuvchanligini ta'minlovchi eng muhim bosqichdir. Tarbiyachining ilmiy-metodik yondashuvi orqali bolalarning empatiyasi, muloqot

madaniyati, tartiblilik va o'zini tutish ko'nikmalari samarali rivojlanadi. Mazkur maqola orqali maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy xulqni shakllantirishda qo'llaniladigan samarali usullar va metodlar taklif qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Abdullayeva, G. (2017).** Maktabgacha ta'limda ijtimoiy xulqni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.*
2. **Davronov, M. (2020).** Maktabgacha ta'limda ijtimoiy xulqni tarbiyalashda metodologik yondashuvlar. *O'zbekiston pedagogika ilmiy jurnali*, 3(5), 25-30.
3. **Kamalov, A. (2018).** Bolalar psixologiyasi: Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy xulqini rivojlantirish. *Toshkent: Fan va texnologiya.*
4. **Xolmirzaeva, N. (2019).** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish. *Pedagogik bilimlar va innovatsiyalar jurnali*, 2(4), 45-50.
5. **Shodmonov, B. (2021).** Pedagogik texnologiyalar: Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy xulqni tarbiyalash. *Toshkent: Sharq.*
6. **Vygotsky, L. S. (1978).** Menga ta'limning ijtimoiy asoslari. *Moscow: Pedagogika.*
7. **Piaget, J. (1962).** Children and Reality: New Discoveries in the Psychological Development of Children. *New York: Viking Press.*
8. **Kuhl, P. K. (2019).** Social Interaction and the Development of Language and Thought in Early Childhood. *Journal of Early Childhood Research*, 17(2), 117-130.
9. **National Association for the Education of Young Children (NAEYC) (2020).** Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs. *Washington, DC: NAEYC.*

Internet saytlari:

1. www.pedagog.uz.
2. www.Ziyonet.uz.
3. www.tdpu.uz.